**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro'yxatga olindi:
№ BD-60310300-1.22
2024 yil "10" 12

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori:
_____________ R.I.Xalmuradov
2024 yil "__" ________

# OILA PSIXOLOGIYASI

## FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| **Ta'lim sohasi:** | 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60310300 – Psixologiya |



Сканировано с CamScanner

| Fan/modul kodi<br>OIPS1704 | O‘quv yili<br>2027 - 2028 | Semestr<br>7 | ECTS-kreditlar<br>4 |
|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta’lim tili o‘zbek<br>O‘zbek\Rus | | Haftadagi dars soatlari<br>4 |

| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| | Oila psixologiyasi | 52 | 68 | 120 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda oilaviy munosabatlar psixologiyasi to‘g‘risidagi bilimlarni, oila funksiyalari, oilaviy munosabatlar xususiyatlari va uning psixodiagnostikasini o‘rganish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – nazariy va amaliy jihatdan tadbiq etish, oilada ota – ona va farzand munosabatlari, oilaviy mojarolar va ularning sabablari oilaviy muhitning bola psixologiyasiga ta’siri, ota – onalar pozitsiyasini shakllanishi; reproduvtiv ustanovkalar, oilada tarbiya tiplarini tashxis etish bilan xarakterlanadi. O‘ziga xos ko‘nikmalarni hosil qlishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1 – mavzu. Oila psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari**

Oilaviy munosabatlar psixologiyasining predmeti va vazifalari. Oila psixologik tadqiqot birligi sifatida. Oila tushunchasining psixologik mazmuni. Oilaviy munosabatlar psixologiyasini haqida tushuncha. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi faning vazifalari. Oila psixologik tadqiqotlarning bir bo‘lagi sifatida. Oila tushunchasining psixologik mohiyati. Oila hayot faoliyati makoni sifatida. Shaxs rivojlanishida oilaning roli. Oila ijtimoiylashuvning instituti sifatida.

**2 – mavzu. Oilaning vujudga kelishi va rivojlanishi**

Sotsiogenezda oila rivojlanishining tarixi. Oila evolutsiyasi belgilovchi omillar. Oilaning madaniy, tarixiy va etnik xususiyatlari. Zamonaviy oilalarning rivojlanishi haqidagi g‘oyalari. Demografik o‘zgarishlar va ularning oilaviy hayotga ta’siri.

**3 – mavzu. Oila funksiyasi, oila tiplari va rollari**

Oila funksiyasi, oila tiplari va rollari. Oila funksiyalari: reproduktiv, kommunikatini, iqtisodiy, tarbiyaviy, felisitologik, regulyativ, relaksatsiya.



Сканировано с CamScanner

Funksional va disfunsional oilalar. Oilalarning tuzilmasi va hayot sifatida ko'ra klassifikatsiyasi. Oila dinamikasi. Turli klassifikatsiyalar bo'yicha oilaning rivojlanish bosqichlari. Oiladagi o'zgarishlar: pozitiv va negative, kutilgan va kutilmagan o'zgarishlar va ularning er – xotin munosbatlariga ta'siri. Oilaviy – rollarga nisbatan qo'yiladigan talablarga mutanosiblik. Ijtimoiy va madaniy – tarixiy psixologiya.

Xalqlar psixologiyasi. Kollektiv organizm. G.Spenser. Neyropsixologiya haqida. A.Lebo. E.Dyurkgeym: kollektiv vakillar. Qadriyatlar konsepsiyasi. Instiktlar konsepsiyasi (Makdugall). Psixotexnika.

**4 – mavzu. Oilani o'rganishda tizimli yondashuv**

Tizimli yondashuv. Oila tizimining o'rganishning umumiy xarakteristikasi. Oila tushunchasi va parametrlari tizimi sifatida. Oila qonunlari tushunchasi va ularning oilaviy hayotdagi roli. Oila chegarali va o'zaro harakat standardlari. Oila afsonalari va miflari. Oila anglashda oila haqidagi miflarning roli. M.Bouenning oilaviy tizimlari haqidagi nazariyasi.

Xulq–atvor namunalari va oila ichidagi munosabatlarning avloddan avlodga o'tishda psixogenetik tuzilmalarning avloddan avlodga o'tuvchi ahamiyati. Oila genogrammasi va genosotsiogrammasi.

**5 – mavzu. Oilani o'rganishda sharqona qarashlar**

Sharqda oilani o'rganilishi. Islom dinida oila talqin. Sharq allomalari asarlarida oila psixologiyasini yoritilishi. A.Fitratning oila haqidagi qarashlari. Oilaviy munosabatlarni o'rganishda o'zbek psixologlarning izlanishlari.

**6 – mavzu. Oilaning hayotiy sikli**

Oilaning hayotiy sikli. Oila hayotiy siklini davrlashtirish muammosi. Turli mualliflar nuqtai-nazarida oila bosqichlari tahlili. Oila hayotiy siklining asosiy bosqichlari. Yosh va yetuk oilada oilaviy munosabatlarning rivojlanishidagi asosiy vazifalar. Oila dinamikasi hayotiy sikli doirasida yuzaga keluvchi asosiy oilaviy hodisalarning o'ziga xosligi.

Oila rivojlanishining normativ inqirozlari. Oila funksiyasining buzilish omillari: o'ta kuchli, uzoq muddatli surunkali, oila keskin o'zgarishi, qiyinchililarning jamg'arilishi.

**7 – mavzu: Umr yo'ldosh tanlash nazariyalari**

Umr yo'ldoshni tanlash nazariyalari. Jinsiy tafovutlar va oilaviy munosabatlar. Psixologik androginiya nazariyasi. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra sevgi tipologiyasi. Muhabbat bosqichlari. Bo'lg'usi nikoh munosabatlarining ijobiy va salbiy omillari. Nikohga kirish motivatsiyalari. Nikoh motivlari tiplari. Oilada shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari. Oilada muloqotning buzilish sabablari. Oilada effektiv muloqotni tashkil etish omillari. Er -xotinlarning psixologik birligini muammosi.



Сканировано с CamScanner

Oila jipsligi. Jipslik omillari. Jipslik darajalari. Nikohdan subyektiv qoniqish. Nikohdan qoniqmaslik sabablari. Er–xotinlarga psixologik yordamning asosiy yo'nalishlari.

**8 – mavzu. Psixologik adaptatsiya va oila integratsiyasi**

Psixologik adaptatsiya va oila integratsiyasi. Oilaviy hayot sohasidagi adaptatsion mexanizmlar. O'zaro moslashuvning psixologik mohiyati. Oilaviy adaptatsiyaning asosiy turlari tushunchasi. Moddiy axloqiy- psixologik. Intim – shaxslilik adaptatsiyalari. Oilaviy motivlar shakllanishi va rivojlanishiga olib keluvchi oila integratsiyasining ijtimoiy – funksional mexanizmlari.

Oiladagi ijtimoiy- psixologik muhit. Nikohdan qoniqish omillarini sistemalashtirish. Er - xotin mutanosibligini nikohning muhim sharti sifatida tushunish.

Er–xotin qoniqqanligi bo'yicha 3 yo'nalish: tizimli yondashuv, funksional yondashuv, moslashuvchanli yo'nalishi bo'yicha taqdiqotlari. Komplementarlik va gomogamlikning er-xotin qovushganligida qo'llanilishi.

**9 – mavzu: Ota – ona va farzand munosabatlarining xususiyatlari**

Oilaviy muhitning bola psixologiyasiga ta'siri. Ota–onalar pozitsiyasining shakllanishi. Reproduktiv ustanovkalar. Ehtiyojlar tushunchasi. Bolalarga ehtiyojdan qoniqish darajasi va uni yuzga keltiruvchi omillar. Ota - onalar pozitsiyasining psixologik xususiyatlari.

Ota–onalik ustanovkasi turlari. Ota- onalik pozitsiyasi, uning xarakteristikasi: faollik, adekvatlik, dinamiklik, prognostik. "Mistifikatsiya" fenomen, uning formalari va bola shaxsini rivojlanshidagi o'rni. Ota – onalik pozitsiyasini buzilish sabablari.

**10 – mavzu. Oila va oilaviy munosabatlarni talqin etishda psixoanaliz maktabi**

Bola tarbiyasida ota va onaning roli. Otalik va onalik mehrining xususiyatlari (E. Fromm, A.Adler).

Onalik yosh–jinsiy va shaxslilik aynanligi bosqichi sifatida. Xomiladorli krizisi. Onalik deprivatsiyasi. Tug'ulish tartibiga qarab bolani pozitsiyasi va shaxslilik xususiyatlarining o'ziga xosligi. Oilada tarbiya tiplari.

Bolalar bilan oila ichidagi kommunikatsiya xususiyatlari. Bola shaxsi rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik xarakteristikalar kompleksiga oiladagi tarbiya potensiali va psixologik aura ta'siri.

**11 – mavzu. Oilaviy mojarolar va ularning sabablari**

Nomaqbul oila-oilaning ichki muhitiga psixologik qulayligini pastligini asoslab beruvchi shakli. Oilaviy mojarolar va ularning sabablari. Oilaviy mojarolar: er-xotin o'rtasidagi mojarolar. Qaynona-kelin o'rtasidagi mojarolar. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi mojarolar. Oilada muomala qiyinchliklari.



Сканировано с CamScanner

Oilaviy mojarolarning kelib chiqish sabablari. Ko‘p qirrali aylanali kauzallik qonuni va shaxslararo munosabatlarning turli xil aspektlari. Nomaqul oila psixologik muhit salbiy bo‘lgan oila sifatida.

**12 – mavzu. Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari**

Rashk va xiyonat muammosi. Rashk tiplari. Fuqarolarning xiyonatga munosabatlari va real xulq - atvorlari. Nikoh va oilaning buzulishi. Nikohdan tashqari munosabatlar. Nikohdan tashqari munosabatlarni oila institutiga ta’siri. Nikohdan tashqari munosabatlarda shaxs tipologiyasi.

**13 – mavzu. Oilaviy hayot siklining normativ krizislari**

Ajralishlar va qayta nikohlar muammosi. Ajralish omillari va sabablari. Ajralish jarayonining bosqichlari. Ajrimgacha bo‘lgan oila (ajrimning emotsional fazalari: ajrim to‘g‘risida qaror qabul qilish, oila sistemasining tugatilishi), ajrim jarayonida oila (farzandlarga tushuntirish, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy ajrim). Ajrimdan keying oila (yangi oila tizimini shakllantirish).

Qayta turmush qurish. Yangi oila tizimini shakllanishining asosiy shakllari. Qayta turmush qurishning psixologik muammolari. Bevalik. Psixologik yordamning asosiy vazifalari va yo‘nalishlari.

**14 – mavzu. Shaxs yetukligi va oilaviy munosabatlarni ko‘rinishi**

Shaxs yetukligi va oilaviy munosabatlarni ko‘rinishi. Oilaviy munosabatlar psixologiyasida shaxs yetukligi muammosi. Oila- nikoh munosabatlariga tayyorgarlik. Tadqiq etish darajasi. R.Enrayt modeli. Emotsional – psixoterapivtik funksiya, uning shaxs tuzilmasidagi o‘rni.

**15 – mavzu. Oila diagnostikasi va konsultatsiyasi xususiyatlari**

Oila diagnostikasi va konsultatsiyasi xususiyatlari. Oilaviy munosabatlar diagnostikasi metodlarining o‘ziga xosligi. Oilaning psixologik kartasini ko‘rib chiqish va tuzish. Oilaviy munosabatlar dinamikasi va sifatini aniqlashda proyektiv metodikalardan foydalanish. (oila rasmi). Oila diagnostikasi bosqichlarida genogrammadan foydalanish. Oilaviy sotsiogramma asosida subyektning oiladagi o‘rni, shaxslararo munosabatlari va kommunikatsiya xarakterini o‘rganish.

**III. Seminar mashg‘ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

1. Oilaviy munosabatlar psixologiyasining predmeti va vazifalari.
2. Oilaning vujudga kelishi va rivojlanishi.
3. Oila funksiyasi, oila tiplari va rollari.
4. Oilani o‘rganishda tizimli yondashuv.
5. Oilani o‘rganishda sharqona qarashlar.
6. Oilaning hayotiy sikli.



Сканировано с CamScanner

| | |
|---|---|
| | 7. Umr yo'ldoshini tanlash nazariyalari.<br>8. Psixologik adaptatsiya va oila integratsiyasi.<br>9. Ota – ona va farzandlar munosabatlarining xususiyatlari.<br>10. Oila va oilaviy munosabatlarni talqin etishda psixoanaliz maktabi.<br>11. Oilaviy mojarolar va ularning sabablari.<br>12. Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari.<br>13. Oilaviy hayot siklining nonormativ krizislari.<br>14. Shaxs yetukligi va oilaviy munosabatlarni ko'rinishi.<br>15. Oila diagnostikasi va konsultatsiyasi xususiyatlari.<br>16. Oilaviy tizimning tadqiq etish metodlari.<br>Seminar mashg'ulotlarda guruhlarda ishlash, mustaqil fikrni bayon etish, guruh taqdimotini amalga oshirishni o'rganadilar. Unda talabala asosiy maruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini seminar mashg'ulotlari orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.<br>**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.**<br>**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**<br>1. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi haqida tushuncha.<br>2. Oilada kelishmovchliklar va ularning sabablari.<br>3. Oila funksiyasi, turlari, oilada rollar taqsimoti.<br>4. Oilaning hayotiy sikli.<br>5. Oila tizim sifatida (M.Bouen).<br>6. Umr yo'ldosh tanlash nazariyasi.<br>7. Oilada psixologik muhit.<br>8. Oilada shaxslararo munosabatlar.<br>9. Oilaviy mojarolar va ularning sabablari.<br>10. Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari.<br>11. Oila diagnostikasi va konsultatsiyasi xususiyatlari.<br>12. O'zbekistonda oila psixologiyasi maktabining yaratilishi.<br>13. Oila psixologiyasini sharqona qarashlari.<br>14. Oila psixologiyasi va ularning zamonaviy psixologiyaning rivojlanishida tutgan o'rni.<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V. Fan o'qitilishing natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: |



Сканировано с CamScanner

| | |
|---|---|
| | • Psixologiya mutaxassisligi, sohaga oid asosiy tushuncha va tamoyillarni, psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi, turli psixologik nazariyalar haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lish;***<br>• Turli psixologik maktablar, ularning namoyondalari va asosiy nazariyalari, psixologiyaning asosiy metodlari va tarmoqlari, psixodiagnostik metodlarning xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish ***ko'nikmasiga ega bo'lish;***<br>• Talaba turli psixologik va psixodiagnostik metodlarni qo'llash, psixologiyaning rivojlanish muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish malakasiga ***ega bo'lishi kerak;*** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.**<br>• maruzalar;<br>• interfaol keys – stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol – javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish; |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'la aks ettira olish, o'rganilayotgan muammolar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuni nazorat bo'yicha yozma ishni topshirishi zarur. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar.**<br>1. D.Abdullayeva, R.Yarqulov, N.Atabayeva, Oila psixologiyasi (o'quv qo'llanma) Toshkent 2015<br>2. E.G'. G'oziyev Ontogenez psixologiyasi (o'quv qo'llanma) Toshkent 2020 yil " NIF MSh" nashiryoti<br>3. O.S.Qodirov Umumiy psixologiya (o'quv qo'llanma) Samarqand 2022 yil "Sam DU" nashiryoti<br>4. Z.T. Nishanova Psixologik xizmat. (o'quv qo'llanma) Toshkent 2007 yil "Yangiyul poligraph service" nashiryoti.<br>5. N.S.Jo'rayev, D.A. Saliyeva, N.A.Sultonova, Psixologiya tarixi (Darslik) Toshkent 2019 yil.<br>6. O.S.Qodirov, Sh.Hotamov, Ijtimoiy psixologiya (Darslik) Samarqand 2023 yil<br>7. P.I.Ivanov, M.E. Zufarova, Umumiy psixologiya (Darslik) Toshkent 2018 yil.<br>8. P.I.Ivanov, M.E. Zufarova, Umumiy psixologiya (Darslik) Toshkent 2008 y.<br>9. E.G'. G'oziyev Umumiy psixologiya (darslik) Toshkent 2020 yil "Asian Book House" nashiryoti |



Сканировано с CamScanner

| | | |
|---|---|---|
| | 10. A.K. Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E. Usmanova, I.O. Xaydarov Umumiy psixologiya (o'quv qo'llanma) Toshkent 2018 yil "Barkamol fayz media" nashiryoti<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-sonli Farmoni. – Toshkent. - 243 b.<br>2. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2017.<br>3. Кунисина В.Н., Казаринова Н.В., Поголша Н.В Мелчиноствое обшенийе. СПБ.; Питер, 2001<br>4. Karimova V.M. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T:2006.<br>5. Niyozmetova G.I Oilani diagnostika qilish. T: "Noshir". 2013.<br>**Axborot manbalari:**<br>6. http://psixologiyabuxdu.uz/<br>7. http://elib.buxdu.uz/<br>8. http://ziyonet.uz/ |
| 7. | Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2024-yil 16-avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan. |
| 8. | Fan/modul uchun mas'ullar: Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Amaliy psixologiya" kafedrasi o'qituvchilari; dots.S.Sh.Ummatova, ass.Sh.A.Kuchiboyev va ass. F.F. Akilovlar. |
| 9. | Taqrizchilar: SamDU, "Amaliy psixologiya" kafedrasi mudiri, dots.O.S.Qodirov<br>Samarqand davlat tibbiyot universiteti Pedagogika-psixologiya kafedrasi dotsenti D.U.Mamadiyorova |

**Rais:** **dots. M.Normamatova**

**Kafedra mudiri:** **dots. O.S.Qodirov**

**Fakultet dekani:** **dots. A.Q. Aymatov**

**"TASDIQLAYMAN"**

**SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektori:**

**____________ A.S.Soleev**

**"___"__________2024-yil**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti "Amaliy psixologiya" kafedrasi dotsenti S.Sh.Ummatova tomonidan tayyorlangan "Oila psixologiyasi" faniga tuzilgan fan dasturiga**

**TAQRIZ**

"Oila psixologiyasi" fanida fan dasturi oily ta'lim muassasasida o'quv jarayonlarini tashkil etishda talabalarga "Oila psixologiyasi" bilimlar berish, har bir inson va butun bir jamiyat psixik salomatligini saqlab qolishga mo'ljallab tuzib chiqilgan. Fan dasturi oily ta'lim muassasalarida fanni tashkil etishda fanning vujudga kelish tarixi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari, fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga qo'yilgan talablar, fanning mohiyati ochib berilgan. Fan dasturida fan yuzasidan mavzular ketma-ketligi, fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda murakkablik darajasi ishlab chiqilgan. Bundan tashqari talabalarga shaxsning bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy sifatlari, individual-psixologik xususiyatlari, ichki regulyatsiya, shaxs va faoliyat shuningdek, kasbiy ko'nikmalar va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammolariga alohida e'tibor qaratilgan.

Talabalarga "Oila psixologiyasi" fanining predmeti, maqsad va vazifalari, fanning yuzaga kelish tarixi, ushbu fan taraqqiyotiga turli olimlarning qo'shgan hissasi, miya va psixika, psixikaning nerv-fiziologik asoslari, shaxs, faoliyat, kognitiv jarayonlar, jumladan, diqqat, xotira, xayol, sezgi, idrok, nutq, tafakkur jarayonlari, shaxsning hissiy irodaviy sifatlari hamda individual psixologik xususiyatlariga doir umumiy bilimlar shakllantiriladi. Fan dasturi tayyorlash davomida oliy ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganib chiqqan holda oliy ta'lim tizimida fanning yutuqlarini tatbiq etish yuzasidan mavzular ishlab chiqilgan. Oliy ta'lim tizimi, universitetda ta'lim sifatini ta'minlashda hozirda mavjud bo'lgan real mavzular muammolari aniqlangan va tavsiyalar berilgan.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti "Amaliy psixologiya" kafedrasi dotsenti S.Sh.Ummatova tomonidan tayyorlangan "Oila psixologiyasi" faniga tuzilgan fan dasturini chop qilish va Psixologiya (barcha) bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalariga dars o'tishda mutaxassislik fani sifatida foydalanish mumkin.

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti**
**Pedagogika-psixologiya kafedrasi dotsenti,**
**Psixologiya fanlari bo'yicha**
**falsafa doktori (PhD):** **D.U.Mamadiyarova**



Сканировано с CamScanner

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti "Amaliy psixologiya" kafedrasi dotsenti S.Sh.Ummatova tomonidan tayyorlangan "Oila psixologiyasi" faniga tuzilgan fan dasturiga**

## TAQRIZ

Ushbu fan dasturi oily ta'lim muassasasida o'quv jarayonlarini tashkil etishda talabalarga "Oila psixologiyasi" bilimlar berish, har bir inson va butun bir jamiyat psixik salomatligini saqlab qolishga mo'ljallab tuzib chiqilgan. Fan dasturi oily ta'lim muassasalarida fanni tashkil etishda fanning vujudga kelish tarixi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari, fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga qo'yilgan talablar, fanning mohiyati ochib berilgan. Fan dasturida fan yuzasidan mavzular ketma-ketligi, fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda murakkablik darajasi ishlab chiqilgan. Bundan tashqari talabalarga shaxsning bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy sifatlari, individual-psixologik xususiyatlari, ichki regulyatsiya, shaxs va faoliyat shuningdek, kasbiy ko'nikmalar va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammolariga alohida e'tibor qaratilgan.

Fan yuzasidan talabalarga "Oila psixologiyasi" fanining predmeti, maqsad va vazifalari, fanning yuzaga kelish tarixi, ushbu fan taraqqiyotiga turli olimlarning qo'shgan hissasi, miya va psixika, psixikaning nerv-fiziologik asoslari, shaxs, faoliyat, kognitiv jarayonlar, jumladan, diqqat, xotira, xayol, sezgi, idrok, nutq, tafakkur jarayonlari, shaxsning hissiy irodaviy sifatlari hamda individual psixologik xususiyatlariga doir umumiy bilimlar shakllantiriladi. Fan dasturi tayyorlash davomida oliy ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganib chiqqan holda oliy ta'lim tizimida fanning yutuqlarini tatbiq etish yuzasidan mavzular ishlab chiqilgan. Oliy ta'lim tizimi, universitetda ta'lim sifatini ta'minlashda hozirda mavjud bo'lgan real mavzular muammolari aniqlangan va tavsiyalar berilgan.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti "Amaliy psixologiya" kafedrasi dotsenti S.Sh.Ummatova tomonidan tayyorlangan "Oila psixologiyasi" faniga tuzilgan fan dasturini chop qilish va Psixologiya (barcha) bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalariga dars o'tishda mutaxassislik fani sifatida foydalanish mumkin.

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi mudiri, Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent** — **Qodirov Obid Safarovich**

PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY SIYOSIY FANLAR FAKULTETI



Сканировано с CamScanner